

Date: 23rd December-2024

**O‘ZBEK XALQ PEDAGOGIKASI VA ISLOM TA’LIMOTIDA TA’LIM VA
TARBIYAGA OID QARASHLAR UYG‘UNLIGI**

Olimjonova Ziynat Bobomurod qizi

International school of finance technology and science instituti Katta o‘qituvchisi

Abdushukurova Dildora

International school of finance technology and science instituti

“Boshlang‘ich ta‘lim” yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbek xalq pedagogikasi va Islom ta‘limotida ijtimoiy pedagogik g‘oyalarning uyg‘unligi va ularning inson tarbiyasidagi ahamiyati yoritib berilgan. Maqolada xalq pedagogikasi va Islom ta‘limoti o‘rtasidagi uyg‘un jihatlar, xususan, ma‘naviy qadriyatlar axloqiy fazilatlar shakllanishi muhimligiga alohida e‘tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: qadriyatlar islom ta‘limoti, hadis, ma‘naviyat, axloq, ta‘lim va tarbiya.

O‘zbek xalq pedagogikasi va islom ta‘limoti insonni tarbiyalash va yetuk shaxsni shakllantirishda muhim tamoyillarni ilgari suradi. Ular insonning ma‘naviy, axloqiy va jismoniy jihatdan barkamol bo‘lishini ta‘minlashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Bu ikki manbaning uyg‘unligi o‘zbek xalqining milliy-ma‘naviy qadriyatlarida, urf-odatlarida va madaniyatida namoyon bo‘lib, ta‘lim va tarbiyada asosiy yo‘nalishlarni belgilab beradi. Xalq pedagogikasida tarbiya jarayoni axloq-odob, kattalarga hurmat va mehr-oqibat kabi qadriyatlarga asoslanadi. Bu qadriyatlar bolalikdan xalq ertaklari, maqollari va urf-odatlar orqali yosh avlodga singdiriladi. Jumladan, bolalarni mehmondo‘stlikka, qo‘shnichilikka va katta yoshdagilarga hurmat ko‘rsatishga o‘rgatish ota-onalar tarbiyasining ajralmas qismi bo‘lgan.

Xalq pedagogikasini o‘rganishda S.R. Rajabov, A. Ismoilov, I. Obidova, S. Temurova, M. Ochilova, A. Otayeva kabi olimlar muhim ilmiy hissalarini qo‘shganlar. Ularning tadqiqotlari va kuzatishlari asosida xalq pedagogikasini quyidagi asosiy yo‘nalishlarga ajratish mumkin:

- Bolaning axloqiy, aqliy, mehnat, jismoniy va estetik tarbiyasini o‘zaro uzviy bog‘liq holda olib borish orqali har tomonlama rivojlanishini ta‘minlash g‘oyasi.
- Shaxsning tarbiyalanish jarayonida oilaning asosiy tarbiyaviy manba sifatidagi muhim rolini belgilash.
- Xalq ijodiyoti namunalari orqali xalq pedagogikasining usul va tamoyillarini ifoda etish.
- Ta‘lim va tarbiyaning pedagogik usullarini yaxlit tizim sifatida birlashtirish.
- Xalq pedagogikasining amaliy xarakterini yoritish va uning kundalik hayotdagi qo‘llanishini ko‘rsatish.
- Yoshlarda fuqarolik mas‘uliyati va oilaviy faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirish orqali xalq pedagogikasining ijtimoiy rolini ta‘kidlash.



Date: 23rd December-2024

Mazkur yo‘nalishlar xalq pedagogikasining nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega ekanligini ko‘rsatadi va uni zamonaviy ta‘lim-tarbiyaga tatbiq qilishning dolzarbligini yoritadi.

Xalq pedagogikasi jamiyatning pedagogik madaniyatidagi eng yaxshi qadryatlarini mujassamlashtirgan: kattalarga hurmat, yuqori axloqiy fazilatlar, mehnatsevarlik, bag‘rikenglik va albatta o‘zaro totuvlik. Sobiq sho‘ro tuzumi davrida bu kabi qadryatlarning va an‘analarning toptalishi sababli ahloqiy holatlarning yomonlashuviga olib keldi. Shuning uchun ham milliy qadryatlar va an‘analarni yana o‘z holatiga va albatta bundada yaxshi natijaga olib chiqish uchun esa xalq pedagogikasi ta‘lim-tarbiya masalalarini oilaviy munosabatlarda qaror toptirdi. Oila bu – jamiyat negizidir. Xalq pedagogikasida oila inson hayotida eng samarali tarbiya omili sifatida qaraladi. Oila farzandlar o‘rtasidagi munosabatlarda ham boshlang‘ich vositasi sifatida ko‘rilgan. Chunki bolalar o‘zini qiziqtirgan har qanday masalalarda, avvalambor, ota-onalari bilan hamsuhbat bo‘lishadi. Ayni shu yerda esa ota-onaning tarbiyaviy vazifalar aniqlanadi. Ota-ona bo‘lish oson, lekin, yaxshi ota-ona bo‘lish har kimning ham qo‘lidan kelavermaydi. O‘z rivojlanib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash bugungi kunda dolzabr masalaga aylanib borayotgan bir vaqt, ham hozirgi zamon talabiga mos ham o‘tmish tajribalaridan foydalangan holda bolaga tarbiya berish, uni har tomonlama yetuk hamda barkamol shaxs bo‘lib yetishishida asosiy vosita bo‘lib xizmat qilgan bo‘lardir.

Islom ta‘limoti esa axloqni nafaqat oilaviy, balki diniy-ma‘naviy mas‘uliyat sifatida talqin qiladi. Hadislarda ota-onani hurmat qilish, yolg‘on gapirmaslik va boshqalarga yordam berish axloqiy me‘yor sifatida bayon etilgan. Shuningdek, Islomda tarbiya jarayonida halollik, poklik va mehr-oqibatning ustuvorligi ta‘kidlanadi. Ma‘rifat va bilim olish: “Bilim izlash har bir musulmon uchun farzdir” degan hadis ta‘limning hayotiy ahamiyatini belgilaydi. Axloqiy tarbiya: Shaxsni kamtarlik, mehr-oqibat va rostgo‘ylik kabi fazilatlarda tarbiyalash. Mas‘uliyat hissi: Har bir inson o‘z xatti-harakatlari uchun javobgar. “Sizlarning har biringiz cho‘ponsiz va cho‘pon o‘z suruvi uchun javobgar.” Islom ta‘limoti insonni shaxs sifatida tarbiyalashni, axloq va ma‘rifatni rivojlantirishni asosiy vazifa deb biladi. U Qur‘on, hadis va islom olimlarining ta‘limotlarida o‘z ifodasini topgan.

Axloqiy tarbiya - Qur‘on va hadisda shaxsiy va ijtimoiy hayotda rostgo‘ylik, halollik, kamtarlik kabi fazilatlar asosiy ahamiyatga ega. Hadis: “Sizlardan eng yaxshingiz – odob-eng yaxshi tarbiya qilganingiz.” Oiladagi tarbiya - Islomda ota-onaning tarbiyaviy vazifalari aniq belgilangan. Bola oilada Allohga ibodat qilish, o‘z haq-huquqlarini bilish va boshqalarning haq-huquqlarini hurmat qilishni o‘rganadi. Bola odobli bo‘lishni, kattalarga hurmat, kichiklarga mehr-muruvvat qilishni oila orqali egallaydi. Jamoaviy mas‘uliyat - Islom har bir insonni jamiyat oldidagi burch va mas‘uliyatni his qilishga chaqiradi

O‘zbek xalq pedagogikasi va Islom ta‘limotidagi ijtimoiy pedagogik g‘oyalar insonni har tomonlama barkamol shaxs sifatida shakllantirishni ko‘zda tutadi. Bu ikki manba o‘zaro uyg‘unlashgan holda jamiyat ma‘naviy taraqqiyotining muhim asosi bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli, ularni zamonaviy tarbiya jarayonida qo‘llash dolzarb



Date: 23rd December-2024

ahamiyatga ega. O'zbek xalq pedagogikasi va Islom ta'limoti shaxs va jamiyatning ahloqiy, ma'naviy rivojlanishida muhim manbalar hisoblanadi. Ular asosida shakllangan ta'lim-tarbiya jarayoni milliy o'zlikni saqlash, jamiyatni rivojlantirish va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ochilova, M. **Oila tarbiyasida xalq pedagogikasining ahamiyati.** Toshkent: Yangi asr avlodi. 2015.
2. Nazarov, R. **Xalq tarbiyasining zamonaviy talqini.** Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 2016
3. Murodjon Oktam og, F. (2023). OILADA KONFLIKTLARNI YUZAGA KELISH SABABLARI VA ULARNI OLDINI OLISHGA QARATILGAN CHORA TADBIRLAR. *Journal of new century innovations*, 27(2), 46-49.
4. Olimjonova, Z. B. Q., Ilhomov, S. O. O., & Anorboyeva, J. S. Q. (2023). JAMOADA KONFLIKTLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI. *Academic research in educational sciences*, 4(TMA Conference), 235-238.
5. Якубова, Г. А., & Олимжонова, З. Б. Қ. (2022). МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИНГ ПСИХОФИЗИОЛОГИК РИВОЖЛАНИШИ. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2(5), 681-689.
6. ABDUSAMATOV, X. (2024). OILALI TALABALARDA AJRIM HOLATI YUZAGA KELISHINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK ASPEKTLARI. *News of UzMU journal*, 1(1.2. 1), 70-74.
7. Абдусаматов, Х. У. Ў. (2023). МЕХНАТ МИГРАНТЛАРИ ОИЛАЛАРИДАГИ ХАЁТ МАЗМУНИНИНГ ЙЎНАЛГАНЛИК ҲОЛАТИ. *Academic research in educational sciences*, 4(TMA Conference), 663-670.
8. Xudaybergenovich, A. X., & Baxtiyarovna, S. D. (2024). FARZAND TARBIYASIGA OILAVIY AJRALISHLAR IJTIMOY-PSIXOLOGIK TA'SIRINI EMPIRIK O'RGANISH YUZASIDAN TADQIQOT XULOSALARI. *IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMYIY JURNALI*, 4(5), 73-82.
9. Baxtiyorovna, S. D. (2023). SHARQ ALLOMALARI ASARLARIDA IJTIMOY-IQTISODIY QARAM XULQ-ATVOR PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA. *SO'NGI ILMYIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 6(9), 22-27.

